

**Rahmonova Gulhayo Saidjon qizi**

*A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti doktoranti*

*e-mail:rahmonova17@gmail.com*

*Tel: (97)000-97-38*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada hozirda hayotiy jarayonlarga singib borayotgan onlayn ta'limda sifat muammosi dolzarbligi, sinxron va asinxron ta'lim turlari haqida batafsil yoritilgan. Asinxron onlayn ta'lim samarali, yuqori darajadagi sifatli o'qitishni taqdim qilishga qodir bo'lgan shakl. Yuqori sifat va samaraga erishish uchun asinxron onlayn ta'limning xususiyatlarini va ularning yuqori darajadagi ta'limni kafolatlash uchun hissasini o'rganish muhim. Ushbu o'quv shaklida sifatli ta'limni ta'minlash o'z-o'zini yo'naltirish, nazorat qilish va boshqarishni talab qiladi. Maqolada asinxron onlayn ta'limning shu kabi muammolari ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *onlayn ta'lim, sinxron, asinxron ta'lim, onlayn ta'lim sifati, o'z-o'zini nazorat qilish.*

Onlayn ta'lim – bu sifatli ta'limni kafolatlovchi, aniq, moslashuvchan va qulay ta'lim shakli. COVID-19 pandemiyasi davrida onlayn ta'lim shakli keng ommalashdi va ta'lim tashkilotlari keyinchalik ham qulaylik va imkoniyatlarga boy, kamxarajat ushbu shaklni saqlab qolishga harakat qildilar.

Ma'lumki, onlayn ta'lim, ya'ni masofaviy o'qish, hozirgi kunda dunyo bo'ylab jadal sur'atlarda ommalashib bormoqda, hattoki, ba'zi davlatlarda kundalik holatga aylanib ulgurdi. Respublikamizda esa masofaviy ta'limning rivojlanish istiqbollari kelsak, masofaviy ta'lim ikki yo'nalishda, ya'ni real vaqt rejimiga asoslangan sinxron yoki real vaqt rejimiga asoslanmagan nosinxron tarzda tashkil etilayotgani kuzatilmoqda va yaqin kelajakda ushbu trend saqlanib qolishi kutilmoqda.

**Asinxron va sinxron ta'lim.** Asinxron onlayn ta'lim o'quvchilarga o'quv materiallarini belgilangan vaqt ichida o'zlariga qulayvaqtlarda ko'rish imkonini beradi va bu ta'lim usulida jonli videoma'ruza kabi o'quv komponentidan foydalanilmaydi. Sinxron onlayn ta'lim esa, o'quvchilardan har hafta ma'lum bir vaqtda tizimga kirishlari va darsda qatnashishlari talab qilinishini anglatadi. Asinxron va sinxron ta'lim o'rtasidagi asosiy farq bu jonli o'qitish komponentining belgilangan vaqtda sodir bo'lishidir.



2021-yilda YUNESKO tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, dunyo bo'ylab onlayn ta'lim olgan 617 million o'quvchilar o'qish savodxonligi va matematika bo'yicha minimal talab qilinadigan bilim darajasiga erisha olmaganlar, bu ko'rsatkich onlayn ta'lim tizimining kamchiliklarini ko'rsatadi. Albatta, 2019-2021-yillarda ta'lim muassasalarining majburan yopilishi va virtuallikka majburan o'tish ta'lim sifatining pasayishiga shubhasiz dalil bo'ladi. Lekin, ta'lim sifati – bu faqat ta'lim muassasasi yoki akkreditatsiya organiga tegishli bo'lishi kerak bo'lgan masala emas, bu barcha manfaatdor tomonlar (maktab, OTM, vazirliklar va hokazo) bilan hamjamiyatda qurilishi kerak bo'lgan masala.

Onlayn ta'lim yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish uchun qulay va moslashuvchan ta'lim turidir, asinxron onlayn ta'lim o'quv muhiti va natijalarining intellektual sifatini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega. Asinxron onlayn ta'lim yuqori darajadagi ta'limni qo'llab-quvvatlash va chuqur va mazmunli ta'lim natijalariga mos keladigan kognitiv mavjudlikni yaratish xususiyatlariga ega. Bu, shubhasiz, katta hajmdagi ma'lumotlarni uzatish va assimilyatsiya qilishdan o'quvchining vaqt va makon mustaqilligini kamaytirmasdan, virtual tadqiqot hamjamiyatlarini qo'llab-quvvatlash qobiliyatiga asoslangan asinxron onlayn ta'limning interaktiv va konstruktiv salohiyatiga o'tishni anglatadi. Lekin, u o'quvchi va o'qituvchilar uchun sifatni ta'minlashda ba'zi muammolarni keltirib chiqaradi. Asinxron rejimda amalga oshiriluvchi onlayn ta'limda, ayniqsa, bu muammolar yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan o'quvchilar quyidagi muammolarga duch kelishadi:



- Muntazam aloqaning yetishmasligi. O‘quvchilar o‘qituvchi yoki tengdoshlari bilan muntazam aloqa qilishmaydi, oqibatda esa, fikr almashish, birgalikda fikrlash va fikrlarni umumlashtirish orqali darsni o‘rganishlariga to‘sqinlik vujudga keladi;

- Muntazam nazorat qilinmasligi. Darslarni o‘zlashtirilishi va vazifalarni qanday bajarilganligi nazorati kechiktirilishi ta’lim sifatiga salbiy ta’sir qiladi va o‘quvchi tajribasida bo‘shliq qolishiga sabab bo‘ladi;

- Asinxron ta’lim o‘quvchidan o‘z-o‘zini tartibga solish va o‘zini nazorat qilishni talab qiladi. Onlayn ta’limning asinxron va virtual tabiati o‘quvchilarni o‘z-o‘zini boshqarishga va o‘rganish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga chaqiradi. Ya’ni, ularni o‘rganishning kognitiv va kontekstual jihatlarini kuzatish va boshqarishni ko‘proq nazorat qilishga chaqiradi. Muammo shundaki, o‘qituvchilar o‘quvchilarni o‘z o‘rganishlari ustidan nazoratni kuchaytirishni rag‘batlantiradigan va qo‘llab-quvvatlaydigan tuzilma va yo‘l-yo‘riq bilan ta’minlashga mas’uldirlar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Garrison, D.. (2003). Cognitive presence for effective asynchronous online learning: The role of reflective inquiry, self-direction and metacognition. Elements of Quality Online Education: Practice and Direction. 4.

2. K.Hadullo, R.Oboko and E.Omwenga actors affecting asynchronous e-learning quality in developing countries. International Journal of Education and Development using Information and Communication Technology (IJEDICT), 2018, Vol. 14, Issue 1, pp. 152-163

3. Rahmonova Gulhayo Saidjon Qizi "UZLUKSIZ KASBIY TA’LIM” MAXSUS ELEKTRON PLATFORMASI VA UNDA TA’LIM SIFATINI BOSHQARISH // SAI. 2022. №JSSR. URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/uzluksiz-kasbiy-ta-lim-maxsus-elektron-platformasi-va-unda-ta-lim-sifatini-boshqarish>

4. <https://www.easygenerator.com/en/blog/e-learning/synchronous-learning-vs-asynchronous-learning/#:~:text=Disadvantages%20of%20asynchronous%20learning&text=Without%20an%20instructor%20or%20peers,a%20real%2Dtime%20learning%20environment.>

5. Blau, I., Weiser, O., and Eshet-Alkalai, Y. (2017). How do medium naturalness and personality traits shape academic achievement and perceived learning? An experimental study of face-to-face and synchronous e-learning. Res. Learn. Technol. 25. doi: 10.25304/rlt.v25.1974

6. Daigle, D. T., and Stuvland, A. (2020). Teaching political science research methods across delivery modalities: comparing outcomes between face-to-face and distance-hybrid courses. J. Political Sci. Educ., 1–23. doi: 10.1080/15512169.2020.1760105 [Epub ahead of print]

7. John Stephens. Asinxron aloqa: xususiyatlari, turlari va afzalliklari. 24 Yanvar 2021. <https://uz.warbletoncouncil.org/comunicacion-asincronica-10750>